

CHOCH VOHASIDAGI MA'MURIY-SIYOSIY VA IQTISODIY MARKAZLAR TARIXI

*Najmuddinova Sitora Bektosh qizi
SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mavzuni o'rganishda Yevrosiyodagi birinchi imperiya deb topilgan Buyuk Turk xoqonligi qisqa fursatda sharqda Koreys bo'g'ozi g'arbda Shimoliy Qora dengiz bo'yłari, Shimolda Janubiy Sibir, janubda esa Shimoliy Hindistongacha bo'lган yerlarda yirik sultanat quradi. Turk xoqonlari qo'shinlari Amudaryo – Sirdayo hududlariga kirib kelgan vaqtida bu yerda Ani (Buxoro), Sao (Kabudon), Shi (Choch), Mi (Maymurg'), Xe (Kushoniya), Xosyun(Xorazm), Maodi (Bitik yoki Vardona), ShiShi (Kesh), Kan (Samarqand) kabi eftallarga qaram katta-kichik voha hukmdorliklari bo'lган. Ushbu maqolada Choch vohasidagi ma'muriy-siyosiy va iqtisodiy markazlar tarixi va uning o'rganilishiga oid ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Choch, Turk xoqonligi, xitoy manbalari, geografik terminlar, teginlar, tarixshunoslik, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti.

Аннотация: Великий Тюркский каганат, считающийся первой империей в Евразии при изучении предмета, построил большое царство за короткий период времени на землях от Корейского пролива на востоке до Северного Причерноморья на западе, Южного Сибирь на севере и Северная Индия на юге. Когда войска турецких ханов вошли в Амударья-Сырдаю, здесь находились Ани (Бухара), Сао (Кабудон), Ши (Чоч), Ми (Маймург), Хэ (Кушония), Хосун (Хорезм), Маоди (Битик или Вардона), Шиши (Кеш), Кан (Самарканд), существовали большие и малые оазисы, зависимые от Эфталов. В данной статье описана история административно-политических и экономических центров Чоского оазиса и сведения о его изучении.

Ключевые слова: Чоч, Турецкое ханство, китайские источники, географические термины, тегины, историография, социально-политическое и экономико-культурное развитие общества.

Turk xoqonligi ushbu voha hukmdorliklarini eftalitlar qo'lidan tortib olib, ular ustidan o'z hukmdorligini o'rnatadi. Shu o'rinda "Voha hukmdorligi" terminiga ham to'xtalib o'tish kerak. Chunki ko'pgina ishlarda ma'muriy-hududiy birliklarni bildirish uchun "davlat", "davlatcha", "o'lka", "podsholik", "hokimlik", "mulk" kabi siyosiy-geografik terminlar keng o'rin olgan. Mintaqaga voha hukmdoliklarining ko'pchiligi biron bir yirik sultanat ichiga kirgan paytda ham o'z nisbiy mustaqilligini saqlashga urinar, o'z sulolasiga boshqaruvi daxlsizligini ta'minlash uchun yangi xo'jayinlari bilan

kelishish yo'lini tutib kelishar edi. Ularning nisbiy bo'lsa-da, yarim mustaqilligi tanga pullar bostirishda ham yaqqol ko'rindi.

Ayrim tadqiqotchilar mana shu omillarni ko'zda tutib "kichik davlat" yoki "davlatchilik" tarzidagi terminlardan foydalanadilar. Aslida bu terminlar unchalik o'zini oqlamaydi. Chunki imperial harakterdagi Turk xoqonligi qo'li ostidagi bunday siyosiy uyishmalar xoqonlikning vassali bo'lishgan. "O'lka" termini siyosiy tushunchadan ko'ra ko'proq geografik mazmunga yaqin kelsa, "sulola" termini ostida muayyan urug'dan, avloddan tarqalgan, vorislik, valliahdlik huquqiga ega bo'lgan, asosan birin ketin taxtga o'tgan podsholar amirlar va xonlar nasli tushuniladi. Shunga o'xhash holat ma'muriy – hududiy birliklarni ifodalovchi boshqa siyosiy – geografik terminlarning qo'llanilishida ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, bugungi kunda muayyan viloyat hisoblanuvchi, ammo tarixda VI-VIII-asrlarda muayyan davlat uyushmasi maqomida Choch, Farg'ona, So'g'd, Ustrushona kabi siyosiy birliklar uchun "viloyat" so'zini ishlatish unchalik o'zini oqlamaydi. Chunki "viloyat" tushunchasi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, arablar bosqinigacha bo'lgan yuqoridagi o'xhash voha hukmdorliklariga bu terminni qo'llab bo'lmaydi.

Shuningdek "mulk" va "hokimlik" tushunchalari ham anchayin tor tushunchalardir. Chunki o'rganilayotgan davrda "mulkdor" bo'lgan qishloq hokimi ham kimgadur qaram bo'lgan. Quyida sanab o'tgan hukmdorliklarning har birida o'nga yaqin yoki undan ham kop o'zining qaram qishloqlari bo'lgan. Qishloqlardagi yirik yer egalari esa "hokim" bo'lib, qishloq o'ziga xos "mulk" hisoblangan. Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda "владение" va "владитил" terminlari keng qo'llaniladi :bu termin ostida hokimdan yuqori, ammo oliy hukmdor (bu o'rinda imperator yoki xoqon ko'zda tutilyapti)dan pastroq bo'lgan shaxs – "hukmdor" va uning boshqaruvidagi muayyan siyosiy hudud – "hukmdorlik" tushuniladi. Bilishimizcha, Turk xoqonligidagi yarim mustaqil vassal siyosiy uyushmalarni "hukmdorlik" yoki "voha hukmdorligi" deb atash kerak. Chunki ularda davlatchilikka xos bir qator xususiyatlар – muayyan hudud, hukmdor, qo'shin, tanga zarbi, ichki va tashqi aloqalar kabilarni ko'rish mumkin. Turk xoqonligi qo'l ostidagi vassal voha hukmdorliklarining soni 20 ga yaqin bo'lgan. Xoqonlik bu voha hukmdorliklarining ichki ishlariga aralashmagan, bu davrdagi turkiy unvonlar "davr modasi" edi hamda xoqonlik o'z tanga pul zARBIGA ega emas edi mazmunidagi fanda o'rnashib qolgan xulosalarning o'rinsiz ekanligini keyingi bajarilgan ishlar ko'rsatmoqda.

Xatto, Choch, Farg'ona, Toxariston, Kobuliston singari ayrim hukmdorliklar boshqaruviga to'g'ridan – to'g'ri Ashina xonadoni vakillari qo'yilgan va u yerlarda turkiy sulolalar tashkil topgan. Ushbu ishda mintaqadagi 20 ga yaqin voha hukmdorliklari ichidan aynan Chochning tanlab olinishiga bir qator omillar turtki boldi. Birinchidan, mintaqadagi turkiy qatlama yuqori bo'lgan hududlar sirasiga kirgan Choch turkiy etnosning urbanizatsiya jarayonlari ilk bor jadal kechgan makon,

qolaversa, o'zbek xalqiga xos antrapologik tip – “O'rta Osiyo Ikkidaryo oralig'i tipi” ilk bor shakllangan hudud deb bilinadi. Ikkinchidan, Choch o'zining tabiiy geografik joylashuviga ko'ra dasht bilan tutash hududlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyoning shimolidagi chorvador xalqlardan mintaqaning ichki hududlarini nazoratda tutish va himoyalash uchun qulay bo'lган o'ziga xos buffer zona hisoblangan. Davlatlarning paydo bo'lishi va shaharlarning shakllanishi jarayoni o'zaro bir – biri bilan bog'liq, u o'zida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Shahar madaniyati taraqqiyot jarayonining o'zi murakkab voqeylek bo'lib, u bir tamondan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarni, boshqa tomondan esa siyosiy tarixning aniq bir voqeylegini ko'rsatib beradi.

Shunga qaramay tadqiqotchilar shaharlar tarixini o'rganishda ko'pincha alohida bir shahar (masalan: Samarqand, Buxoro, Naxshab kabi), biror geografik yoki tarixiy –madaniy hudud (Yettisuv, Janubiy Qozog'iston, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Janubiy So'g'd), yoxud Buyuk Ipak yo'li bo'yidagi shaharlar tarzida o'rganib keladilar. Aslida shaharlar tarixini butun davlatni qamrab olgan holda va siyosiy jarayonlar bilan u兹viylikda o'rganish kerak. Chochning shahar madaniyatiga doir yozma manbalardagi ma'lumotlar unchalik ko'p bo'lmay, borlari ham qisqa va uzuq – yuluq qaydlardan iborat. Bu borada xitoy yilnomalari (“Suy-shu” va “Tan-shu”) va xitoylik roxib Chjan Syuansanning xotiralari, so'g'diy hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Qolaversa, garchi birmuncha keyingi davrlarga tegishli bo'lsa-da, arab geograflaridan Istahriy, al-Muqaddasiy, Ibn Havqal va muallifi ma'lum bo'limgan forscha “Hudud ul-olam” asarlarida voha shaharlarining tuzilishi va tavsifi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Shunga qaramay, arab va fors tillaridagi manbalar Choch shaharlari tarixini u yoki bu darajada yoritishda qo'l keladi. Markaziy Osiyoning VI-VIII-asrlar davri shahar madaniyatiga doir mintaqadagi barcha madaniy-tarixiy hududlarni qamrab oluvchi ishlar ham bajarilgan. Biroq bu kabi ishlar katta ilmiy jamoaning mehnatini talab qiladi. Akamedik I.D.Kovalchenko to'g'ri uqtirganidek, fan keng rivojlanishiga hissa qo'shgani bilan uning ichidagi masalalarni to'la yechib berolmaydi. Masalan, “O'rta Osiyoning ilk o'rta yuz yilliklari shahari” asari mualliflari Chochni O'rta Osiyoning o'ziga xos “urbanistik fenomini” o'laroq e'tirof etganligi holda o'zining monografiyasini kirish qismida Choch shaharlarini ham tilga olishmagan. Shu kabi holatlarni ko'zda tutgan mutaxassislar o'tgan vaqt davomida voha tarixi bo'yicha qator arxeologik va tarixiy izlanishlarni bajardilar.

Topilgan arxeologik materiallarga tayanib, Choch shaharlarining topografik jihatdan o'ziga xosligi, tuzilishi va moddiy madaniyati to'g'risida ko'plab ishlar qildilar. Ayniqsa vohaning o'tmishini o'rganishda M.E.Massonning olib borgan izlanishlari ahamiyatlidir. Arxeolog Geologiya qo'mitasi va Tojik-Pomir ekspedetsiyasida bo'lган paytidayoq Toshkent vohasidan oltin va kumush qazib

olingani to'g'risida arab geograflarinng ma'lumotlariga o'z e'tiborini qaratadi. Shu tariqa bir qator geolog va arxeologlar yordamida M.E.Masson kumush konini izlash va Chochning tanga zarb qilingan shahri o'mini aniqlash uchun Ohangaron vodiysini sinchiklab o'rghanadi.

Keyinchalik M.E.Massonning izidan borgan shogirdi Yu.F.Buryakov Choch vohasidagi shahar va manzilgohlar o'rnini aniqlashda davom etadi. 1958-yildan boshlab areolog olim vohadagi eski shaharlar va konlarini izchillik bilan o'rganib keldi. Umuman Markaziy Osiyoning VI-VIII-arlardagi etnosiyosiy va madaniy jarayonlariga bag'ishlangan bir qator mahalliy va chet el olimlarining ishlarida Choch tarixi ham chetda qolmagan. Ayniqsa 2007-yili ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan "Toshkent Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi hamda 2009-yil YUNESKO Bosh Assambleyasining qarori bilan Toshkent shahrining 2200 yillik yubeleyining keng nishonlanishi bilan Choch tarixiga doir ishlar yanada ko'payishiga turtki bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, Keyingi yillarda Choch tarixiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga bir tamondan Choch hududida mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahri joylashganligi, boshqa tomondan esa uzoq vaqt boshqa hududlarga qaraganda kam o'rganilgan Choch bugunga kelib yangi yozma manbalar va arxeologik topilmalar tufayli qayta kashf etilayotganligi sabab bo'lsa kerak. Ushbu monografiya ham shunga o'xshash sabablar tufayli yozilgan bo'lib, muallifning "Turk xoqonligining shahar madaniyati (VI-VIII-asrlar)" nomli dessertatsiyasidagi ayrim qismlarni qamrab olgan ilk ishidir. Shuning uchun, unda kamchiliklar va munozarali fikr mulohazalar uchrashi tabiiy holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduallaev B. M. Qadimgi Farg'ona mudofaa inshootlarida ko'chmanchilar madaniylari izlari // O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar shahar madanyati an'analari. O'zbekiston Milliy universiteti Arxeologiya kafedrasining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjumaniga yo'llangan ma'ruzalar to'plami. T. , 2010. -27-28-b.
2. Алимова Д. А. Филанович М. И. Тошкент тарихи (Кадимги даврдан бугунги кунгача). Кайта ишланган ва тулдирилган иккинчи нашри. Т. , 2009 - 29-б.
3. Al-Idrisi. Kitab nuzxat al-mushtak fi-xitirak al-afak (Развлечения истомленного и странствование по областям (Вселенной)/Пер. с араб. Ш. Закирова //Материалы по этнической истории тюрksких народов Центральной Азии. Т. . 2003-С. 51-63
4. Al-Muqaddasi, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Shamsiddin. Kitab ahsan al-taqasim fi-marifat al-aqalim [Deskirtio Imperii moslimiki], /Ed. M. J. de Geoje.

- BGA, paris 3, Lugduni-Batavorum, 1967, -P, 264;Ibn Haukal, Abu-1-Kasim an Nasibi. Kitab sura al-Ard/Ed. J. H Kramers. Ledien, 1939. -P. 507, 522.
5. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T. 2015. -338-347-b.
 6. Аскаров А. А. Буряков. Ю. Ф. Квирквеля. О. Р. Родилиловский. В. В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. Т. , 1988
 7. Бартолд В. В. Отчет о поездке в Среднюю Азию ...-С. 30-36;Елеуов М. Шу мен Талас ортасырлык калалари ...-164-178. 189-б.
 8. Бобоёров Г. Б Гарбий Турк хоконлигининг давлат тузуми :Тарих фанлар доктори-Т. 2012.
 9. Бернштам А. Н. Очерк истории гуннов. Л. 1951. -С. 102.
 - 10.Буряков. Ю. Ф. Историческая топография древних городов Ташкентско оазиса (Историко –археологический очерк Чача и Илака)Т. :Фан. 1975.
 - 11.Буряков Ю. Ф. Грицина А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд-Бишкек:ПСАС. 2006.
 - 12.Древняя и средневековая культура Чача. Т. 1979. -С. 93-109;Брусенко Л. Г. Галиева. З. С. Материалы раскопок квартал X-начала XI вв. на городище Канка // ИМУ. -Т. 1974. -Вып. 19. -С. 124-136.